



Published: January 30, 2026



Read More Articles



Check for updates

Odinaxon MUHAMMAD YUSUF

"Xadichai Kubro" ayol-qizlar o'rta maxsus islom ta'lim

muassasasi katta o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: udaynaa@gmail.com

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUFNING MOTURIDIYLIKKA QO'SHGAN HISSASI

Annotatsiya. Maqolada moturudiylik ta'limotining shakllanish jarayoni, uning ilmiy-nazariy asoslari va islom aqidasi taraqqiyotidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Abu Mansur Moturidiy asos solgan ushbu aqida maktabi Qur'on va sunnatga asoslangan holda aql va naqlning uyg'unlashuvini ta'minlagani bilan ahamiyatlidir. Samanidlar davridagi ilmiy muhit, kalomiy bahslar hamda hanafiy fiqhiga tayangan dalillash tizimi mazkur maktabning keng yoyilishiga zamin yaratgan. Shuningdek, maqolada Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning XX–XXI asrlarda Moturidiy aqidasi targ'ib qilish, uni zamonaviy masalalarga tatbiq etish va ilmiy asosda sharhlashdagi xizmatlari, uning asarlari va ilmiy merosi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Muallif aqida masalalarida muhkam va mutashobih oyatlar, Allohning sifatleri, aqlning islomdagi o'rni va ichki ixtiloflar kabi mavzularda moturudiylik yondashuvining dolzarbligini yoritadi.

Kalit so'zlar: Moturudiylik, Aqida, Abu Mansur Moturidiy, Ahl as-sunna val-jamoa, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Hanafiylik, Kalom, Muhkam va mutashobih oyatlar, Allohning sifatleri, Bilish nazariyasi, Islom ilmlari, Tafsir, Hadis va hayot, Vasatiya.

THE CONTRIBUTION OF SHAYKH MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF TO MATURIDISM

Abstract. The article discusses the formation, doctrinal foundations and historical development of the Maturidi theological school – one of the two principal creeds of Ahl al-Sunna wa al-Jama'a established in the early 4th century AH. Founded by Abu Mansur al-Maturidi of Samarkand, this school emphasizes harmonizing reason and revelation within the framework of Qur'an, Sunnah and Hanafi jurisprudence. The intellectual environment of the Samanid era and debates against Mu'tazilite theology played a significant role in shaping and spreading Maturidi thought. The article also highlights the scholarly contributions of Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, who played an essential role in reviving, interpreting and promoting Maturidi doctrine during the late 20th and early 21st centuries. His works on Qur'anic exegesis, creed, hadith commentary and contemporary religious issues are shown to rely heavily on Maturidi principles. The discussion covers key theological topics such as the nature of divine attributes, the distinction between muhkam and mutashabih verses, epistemology in Islam, and the resolution of doctrinal disputes, demonstrating the lasting relevance of Maturidi methodology.

Keywords: Maturidism, Islamic theology, Abu Mansur al-Maturidi, Ahl al-Sunna wa al-Jama'a, Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Hanafi school, Kalām, Qur'anic exegesis, Muhkam and mutashabih verses, Divine attributes, Islamic epistemology, Creed studies, Wasatiyya.

Moturidiylik ahli sunna val jaomaning to'rtinchi hijriy asr boshlarida shakllangan ikki aqiydaviy mazhabining biridir. Uning asoschisi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Samarqandiy Moturidiy bo'lib, naql va aql orasini jamlagan hadis va sunnat ulamolari mazhabiga eragashadi. Uning shakllanishiga musulmonlarning kalomiy tortishuvlari va imom Moturidiyning faqhdagi ham, aqiydada ham Hanafiy mazhabiga asoslangan fikrlarini asosli keltirib tortishuvlarni yechishga qodirligi turtki bo'lgan. Shuningdek, musulmon yurtlarda aqliy kalomiy mazhablarning tarqalishi ham hadis bilan aqlni jamlagan Moturidiy mazhabining tarqalishiga zamin hozirladi. Bundan tashqari, Somoniy hukmdorlar davrida ilm maskanlari bo'lgan madrasalar va kutubxonalar barpo qilish kabi ilm rivojlanishi uchun bo'lgan harakatlar ham imom Moturidiyning mo'tazilalar e'tiqodlarining noto'g'riligini isbotlash uchun bahslar olib borib, ularning aqiydalarini Movarounnahr diyoridan uzoqlashtirishda xizmati katta bo'lgan. Moturidiy mazhabi asosini hanafiy mazhabi tashkil qiladi. Hattoki, imom Moturidiy o'zining fikrlarida fihqda ham aqiydada ham mutlaqo Abu Hanifaning fikrlariga ergashgan [1:40–44].

Moturidiylik ta'limoti Buxoro, Samarqand atroflarida tarqalgan. Islom ulomalarining katta qismi bu mazhab fikr va ta'limotlarini tasdiqlagan va ularni tarqatishga hissa qo'shib kelmoqdalar. Ularga Muhammad ibn Muhammad Bazdaviy, Muhammad ibn Muhammad Nasafiy Abul Mu'iyin, Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Hanafiy Abul Hafs kabi mashhur mutakallimlar kiradi [1:70].

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ham Moturidiylik yo'nalishi ta'limotlari XX asr oxiri XXI asr boshlarida tarqalishiga ulkan hissa qo'shgan zabardast olimdir. Muftiy, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari idorasi raisi, mustaqil O'zbekiston respublikasining birinchi muftiysi, edi. Shuningdek, u bir qancha xalqaro ilmiy muassasalar va diniy tashkilotlarning a'zosi bo'lgan. Uning vasatiy (mo'tadil islom yo'li) yondashuvi Markaziy Osiyo va Rossiyadagi ikki yuz milliondan ortiq musulmonlarga islomni to'g'ri asosda o'rganishiga ta'sir ko'rsatdi [2:3–16].

Bunda asosiy omil olimning o'z asarlarida sof islom aqiydasini bayon qilishdagi tutgan yo'li "Ahli sunna val-jamoa mazhabi"ga asoslanganligidir. Buning ahamiyatini Shayx Muhammad Sodiq o'zining Aqidatut – Tahoviya sharhining talxiysi kitobida shunday ifodalagan: "Aziz yurtimiz Movarounnahrda sof Islom aqiydasi hukm surgan paytda xalqimiz dunyo xalqlarining peshqadami bo'lgan. Hayotning turli sohalarida ajoyib ta-raqqiyotga erishgan. Boshqa turli ilmlar qatori, aqiyda ilmida ham butun dunyoga dong taratgan ulug' ulamolarni yetishtirib chiqargan. O'sha buyuk vatandoshlarimizdan birlari Imom Abu Mansur Moturidiy hazratlariga Islom ummati haqli ravishda Ahli sunna val jamoa aqiydasini tuzatuvchi degan laqabni bergan. Imom Moturidiyning Qur'oni Karimni Ahli sunna val-jamoa mazhabiga muvofiq qilgan tafsirlari «Ta'viylotu ahlis-sunna» deb nomlanadi. U kishining «Kitobut-tavhid» nomli kitoblari aqiyda bobidagi eng mo'tabar kitoblardan hisoblanadi. Axli sunna val jamoa mazhabidagi bosh yo'nalishlardan biri u kishining nomlari bilan «Moturidiya» deb ataladi" [3:11–12].

Olim o'z hayoti davomida quyidagi g'oyalarini yoyishni maqsad qilgan:

"Ahli sunna val-jamoa mazhabi asosida pok aqiyda va musaffo Islomga intilish, Qur'on va sunnatni o'rganib, amal qilish, islomiy ma'rifat taratish, salafi solih – ulug' mujtahidlarga ergashish, kengbag'irlik va birodarlik ruhini tarqatish, diniy savodsizlikni tugatish, ixtilof va firqachilikka barham berish, mutaasiblik va bid'at-xurofotlarni yo'qotish".

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning Moturidiylik yo'nalishiga asoslangan quyidagi asarlarni yozgan:

1. Tafsiri Hilol (6-juz);
2. Iymon va islom kitobi (Hadis va Hayot 2-juz);

3. Niyat, ixlos, ilm kitobi (Hadis va Hayot 3-juz);
4. Tafsir (Hadis va Hayot 28-juz);
5. Tafsir. Tush va masalalar (Hadis va Hayot 29-juz);
6. Fitnalar va qiyomat alomatlari kitobi (Hadis va Hayot 32-juz);
7. Qiyomat, jannat va do‘zax (Hadis va Hayot 33-juz);
8. Iymon;
9. Vasatiya – hayot yo‘li;
10. Aqoid ilmi va unga bog‘liq masalalar;
11. Folbinlik, sehrgarlik, jin chiqarish va noan‘anaviy davolash kabi ishlarning haqiqati;
12. Aqidatut – Tahoviya sharhining talxiysi;
13. Sunniy aqiydalar;
14. Aqoidi nasafiya sharhi (ovozli tasma);
15. Aqidatut – Tahoviya sharhi (ovozli tasma).

Olimning aqidada eng nozik va ixtilofli masalalardan biri muhkam va mutashobih oyatlar haqida “Tafsiri Hilol” kitobidagi Oli Imron surasi 7 – oyat tafsirida shunday deydi:

هُوَ الَّذِي أَنزَلَ عَلَيْكَ الْكِتَابَ مِنْهُ آيَاتٌ مُحْكَمَاتٌ هُنَّ أُمُّ الْكِتَابِ وَأُخَرُ مُتَشَابِهَاتٌ فَأَمَّا الَّذِينَ فِي قُلُوبِهِمْ زَيْغٌ فَيَتَّبِعُونَ مَا تَشَابَهَ مِنْهُ ابْتِغَاءَ الْفِتْنَةِ وَابْتِغَاءَ تَأْوِيلِهِ ۚ وَمَا يَعْلَمُ تَأْوِيلَهُ إِلَّا اللَّهُ ۗ وَالرَّاسِخُونَ فِي الْعِلْمِ يَقُولُونَ ءَامَنَّا بِهِ ۚ كُلٌّ مِنْ عِنْدِ رَبِّنَا وَمَا يَذْكُرُونَ إِلَّا أُولَٰؤُا الْأَلْبَابِ ﴿٧﴾

“U senga kitobni tushirgan Zotdir. Unda muhkam – oydin oyatlar ham bor va ular kitobning aslidir va mutashobih oyatlar ham bor. Qalblarida hidoyatdan og‘ish borlar fitna maqsadida va uni ta’viyl qilish maqsadida undan mutashobih bo‘lganiga ergashadir. Uning ta’viylini Allohdan boshqa hech kim bilmas. Ilmda sobit bo‘lganlar esa: Unga iymon keltirdik, barchasi Robbimiz huzuridandir, derlar. Va faqat aql egalarigina eslarlar” [4:297].

Bu oyat Qur‘on oyatlarining ikki qismga bo‘linishi haqida xabar beradi: muhkam va mutashobih. «Muhkam» so‘zi mahkam, ochiq-oydin, boshqa yoqqa burib bo‘lmaydigan, degan ma‘noni anglatadi. «Mutashobih» so‘zi esa, o‘xshash, birini biridan ajratish qiyin, bir necha ma‘nolarni anglatadigan, degan ma‘nolarni bildiradi. Qur‘oni Karim oyatlari ham muhkam va mutashobihga bo‘linadi. Bu o‘ziga xos mustaqil fan bo‘lib, uni ulamolar, ayniqsa, Qur‘on ilmlariga ixtisoslashgan olimlar katta e’tibor va qiziqish bilan o‘rganadilar. Biz o‘rganayotgan bu oyat o‘sha mavzu haqida gapiradi [5:353–355].

Oyatning boshida yuqorida o‘tgan sifatleri bilan sifatlangan Alloh taolo O‘z nabiyi Muhammad sollalohu alayhi vasallamga shunday deb xitob qildi: “U senga kitobni tushirgan Zotdir”. Bu yerdagi “kitob”dan murod Qur‘oni Karimdir.

“Unda muhkam – oydin oyatlar ham bor va ular kitobning aslidir va mutashobih oyatlar ham bor”, degani bu – Qur‘oni Karimda kelgan muhkam – oydin oyatlarning ma‘nolari ravshan, tushunilishi ham oson. “Ular kitobning aslidir”, ya’ni o‘sha muhkam oyatlar Qur‘onning aslini tashkil qiladi. Shu bilan birga, Alloh iroda qilgan hikmat uchun Qur‘onda mutashobih – bir-biriga o‘xshash ma‘nolarni bildiradigan, turlicha ma’noga burish mumkin bo‘lgan oyatlar ham bor. Lekin bular juda ham oz bo‘lib, kishilarning iymonini sinashga xizmat qiladi.

“Qalblarida hidoyatdan og‘ish borlar fitna maqsadida va uni ta’viyl qilish maqsadida undan mutashobih bo‘lganiga ergashadi”.

Demak, aslida e’tiqodi buzuvchi kishilarni fosh qilishda mutashobih oyatlar ish berar ekan. Qalbida marazi bor, hidoyatdan og‘gan bunday kishilar aqiyda va shariatning nozik usullarini ochiq-oydin bayon qilib bergan muhkam oyatlarni bir chetga surib qo‘yib, g‘oyibdan eshitish orqali

sobit bo'ladigan xabarlariga, turli ma'nolarga dalolat qiladigan mutashobih oyatlarga fitna qo'zish, uni ta'viyl qilish maqsadida ergashar ekanlar. «Ta'viyl» so'zi biror so'z yoki tushunchani sirtqi ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chirish, degan ma'noni anglatadi. Qalblarida hidoyatdan og'ish bor bo'lgan mazkur kishilar mutashobih oyatlarni o'zlariga qurol qilib olib, fitna qo'zish uchun o'z havo nafslariga muvofiq ta'viyl qiladilar. Va holbuki, mutashobih oyatlarning ta'viylini hamma ham bilavermaydi: «Uning ta'viylini Allohdan boshqa hech kim bilmas». Mutashobih, oyatlarning haqiqiy ta'vilini faqat Alloh taoloning O'zigina biladi. Shuning uchun, mo'min-musulmon kishilar mutashobih oyatlarning ta'viyliga mashg'ul bo'lmasdan, uni Alloh, taoloning o'ziga havola etishlari kerak.

«Ilmda sobit bo'lganlar esa: unga imon keltirdik, barchasi Robbimiz huzuridandir, derlar».

«Ilmda sobit bo'lganlar» – bandalar ichida ilmning oliy darajasiga yetgan ulamolardir.

Ular ilmda sobit bo'lganlari uchun ko'p narsadan boxabar bo'ladilar va shu boisdan ham: Mutashobihga imon keltirdik, barchasi (ya'ni, oyatlarning barchasi) – muhkami ham, mutashobihi ham Robbimiz huzuridandir, deyilar.

Darhaqiqat, zo'r olimlar o'zlarining ilmiy chegaralarini aniq tushunib yetadilar, Allohning ilmi chegarasiz ekanini yaxshi biladilar. Hamda o'rni kelganda hech ikkilanmay, o'zlarining ojiz joylarini e'tirof qiladilar. Ammo haqiqiy ilmdan bebahra, chalasavod kishilar esa, o'zlari bilgan ozgina narsani dunyodagi bor ilm–shu, deb tushunadilar va undan boshqa hamma narsani inkor etib, o'zini ham, o'zgalarni ham ovora qiladilar. Ushbu haqiqatlarni: «...faqat aql egalarigina eslarlar», ya'ni bunday narsalardan aql egalarigina va'z-nasihat va ibrat oladilar [4:298].

Ikkinchi misol:

Sifatlar va Alloh taoloning sifatleri

Shayx Muhammad Sodik "Sunniy aqiydalar" kitobining Sifatlar va Alloh taoloning sifatleri bobida shunday deydi: "Bizning avvalgi va keyingi ulamolarimiz Alloh taoloning go'zal ismlari va ulug' sifatlariga e'tibor qaratganlar va bunda faqat Alloh taoloni Uning zotiga noloyiq bo'lgan barcha kamchiliklardan poklashni maqsad qilganlar [6:102].

Bu ummatning salaf(avvalgi) ulamolari arab til va din asoslari bo'yicha katta bilimga ega bo'lgan – bu borada ixtilof yo'q – va shunga qaramay, ularning zamonida falsafiy oqimlar mavjud bo'lmagan, agar bo'lsa ham, ta'siri kuchli bo'lmagan. Binobarin, ota-bobolarimiz boshqa ilmlarga muhtoj bo'lmaganidek, kalom ilmiga ham ehtiyoj sezmagalar.

Imom Abu Hanifa "Al-Fiqhul-akbar" kitobida aytadi:

"U Zot O'z maxluqotlaridan hech narsaga o'xshamaydi va hech bir maxluqi Unga o'xshamaydi. U har doim O'zining zotiy va fe'liy ismlari va sifatleri bilan bo'lgan va bo'ladi ham. Uning bilishi, bizning bilishimizdek emas. U qudratga ega, lekin bizning qudratimizdek emas. U ko'radi, lekin bizning ko'rishimizdek emas. U Qur'onda O'zining yuz, qo'l, nafs, deb aytganlari Uning kayfiyatsiz sifatlaridir".

Demak, Shayx Muhammad Sodik sifatlar masalasidagi o'z fikrlarida Imom Abu Hanifaga ergashgan, shuningdek mutashobih oyatlar bilan muomala qilishda ham salaflarga ergashganidek, deyishimiz mumkin.

Imom Buxoriy o'zining shayxi Nu'aym ibn Hammod al-Xuzoiydan rivoyat qiladilar, yana Muhammad ibn Ismoil at-Termiziydan rivoyat qiladilar: "Men Nu'aym ibn Hammodning shunday deganini eshitdim: "Kim Allohni U Zotning maxluqotlariga o'xshatsa, batahqiq kofir bo'ladi. Kim Alloh O'zini vasf qilgan narsani inkor qilsa, batahqiq kofir bo'ladi. Alloh va Uzotning Rosuli U Zotni vasf qilgan narsada o'xshatish yo'q" [6:103].

Olim o'zining Iymon kitobida "Islomda aql" mavzusini yoritishda aynan Imom Moturidiyning bilish nazariyasiga asoslangan. Sababi bu nazariyani aqiyda ilmi tarixida Imom Moturidiydan avval hech kim aqiyda faniga qo'shmagan edi. Undan keyingi ulamolar esa Imomga ergashgan holda aqiyda mavzulariga kirishishdan avval aqlning islomdagi o'rnini bayon qilishgan [7:19–20].

Bundan tashqari alloma Shayx Muhammad Sodik dunyoda avj olgan fikriy kurashlar, nizolarning sabab va yechimlarini bayon qilib o'zining "Ixtiloflar. Sabablar. Yechimlar" asarida aynan Imom Moturidiyning ixtilofli masalalarga bergan raddiyalarining ilmiy asoslanganligini va hozirgi kundagi muammolarning yechimida ham Imomning uslubidan foydalanish va ommaga yetkazishning ahamiyatini ta'kidlagan [8:215–227].

Shayx Muhammad Sodikning "Folbinlik, sehrgarlik, jin chiqarish va noan'anaviy davolash kabi ishlarning haqiqati" asarida nafaqat musulmonlar orasida, balki musulmon bo'lmagan xalqlar orasida ham keng tarqalgan firibgarlik turlaridan sehr va jinlar masalalari bilan bog'liq muammolarga ilmiy asosdagi javoblarni berishda ham aynan Ahli sunna val-jamoaning moturidiy mazhabiga asoslangan [9:35–82].

Bundan tashqari alloma aqiydaningasosiy mavzulari bo'lgan iymon [10:156–219], niyat [11:6–40] va qiyomat alomatlariga [12:109–150] doir hadislarni sharhlashda ham aynan Moturidiy mazhabiga ergashgani ma'lumdir. Shuningdek, tafsirning eng oliy darajasi bo'lgan nabaviy tafsirga doir hadislarni o'arhlashda esa aynan Imom Moturidiyning "Ta'viylatu ahlis -sunna" kitobiga suyangani va undan manba' sifatida foydalangani Hadis va Hayotning Tafsirga doir 28 va 29 juzlarida o'z ifodasini topgan [13:432, 14:3–316].

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Aqoid limi va unga bog'liq masalalar. – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – 44 b.
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Vasatiya – hayot yo'li. – Toshkent: Hilol nashr, 2021. – 16 b.
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Aqidatut – Tahoviya sharhining talxiysi. – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – 12 b.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 2 – nashr, 1-juz. – Toshkent: Hilol nashr, 2008. – 298 b.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur'on ilmlari. – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – 355 b.
6. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Sunniy aqiydalar. – Toshkent: Hilol nashr, 2018. – 103 b.
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Iymon. – Toshkent: Hilol nashr, 2023. – 20 b.
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ixtiloflar. Sabablar. Yechimlar. – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – 227 b.
9. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Folbinlik, sehrgarlik, jin chiqarish va noan'anaviy davolash kabi ishlarning haqiqati. – Toshkent: Hilol nashr, 2021. – 82 b.
10. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Iymon va Islom kitobi (Hadis va Hayot 2-juz). – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – 219 b.
11. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Niyat, ixlos, ilm kitobi (Hadis va Hayot 3-juz). – Toshkent: Hilol nashr, 2022. – 40 b.

12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Fitnalar va qiyomat alomatlari kitobi (Hadis va Hayot 32-juz). – Toshkent: Hilol nashr, 2023. – 150 b.
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsir kitobi (Hadis va Hayot 28-juz). – Toshkent: Hilol nashr, 2021. – 432 b.
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsir. Tush va masallar kitobi (Hadis va Hayot 29-juz). – Toshkent: Hilol nashr, 2023. – 316 b.

